

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING 1-SON YIG‘ILISHI
BAYONI**

Raislik qiluvchi:

Bayonni yurituvchi:

**Ma’muriy masalalar
bo‘yicha birinchi prorektor
D.A.Nasimov
Protokol kotibiyati
bo‘limi bosh mutaxassisi
A.Izbasarova**

2026-yil 2-fevral

soat: 14.30

229-xona

Qatnashuvchilar: D.A.Nasimov, R.J.Hoffmann, T.Q.Zou, A.Gadayev, A.To‘xtamishov, N.Xushvaqto‘v, M.Yorqulov, S.Matlabov, N.Mansurova, T.Sultanov, T.Akramova, N.Turdiyeva, O.Boynazarov, N.Raximova, X.Ibragimov.

Taklif etilganlar: Sh.Mardanova.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari.

Birinchi prorektor prof. D.A.Nasimovning axboroti.

2. 2026-yil 5-30 yanvar oyida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida.

Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning axboroti.

3. Universitetning 2026-yili uchun Ish rejasini tasdiqlash haqida.

Protokol kotibiyati bosh mutaxassisi A.Izbasarovanning axboroti.

4. Har xil masalalar.

4.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD N.Raximovani dotsentlik attestatini olishga tavsiya etish haqida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovanning axboroti.

4.2. 2026-yil 1-chorak uchun universitet Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga tayanch doktoranturaga o‘qishga qabul qilingan 6 nafar hamda mustaqil izlanuvchilikka (DSc) o‘qishga tavsiya etilgan 4 nafar ilmiy izlanuvchilarning yakka tartibdagi ish rejalari, nazariy-metodologik dasturlari, dissertatsiya ishi mavzulari va tadqiqotchilarga biriktiriladigan ilmiy rahbarlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovanning axboroti.

4.3. Mustaqil izlanuvchilikka o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchilarni dissertatsiya ishi mavzularini tasdiqlash va ularga mahalliy hamda xorijlik ilmiy rahbarlarni biriktirish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.4. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2025-yil 1-dekabr sanasida e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori 7-ilovasi bilan tasdiqlangan “Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari” tegishli bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida yosh olimlarni xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga tavsiya etish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.5. 2025-yilning 15-18-dekabr kunlari “1-talabalar forumi” doirasida “Turizm va madaniy meros sohasini barqaror rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusida tashkil etilgan konferensiya materiallarini to‘plam shaklida chop etish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti.

4.6. Universitetda professor-o‘qituvchilarni hamda xodimlarni xalqaro ilmiy texnik ma‘lumotlar bazalaridagi (Web of Science, Scopus, Elsevier) jurnallarda ilmiy maqolalar chop etishga rag‘batlantirish to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Mansurovaning axboroti.

4.7. 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha “Turizm” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi Maxmadiyeva Charos Xayrullayevnanining ixtisoslik shifrini 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligiga o‘zgartirish va dissertatsiya ishi mavzusini muhokama qilib qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Mansurovaning axboroti.

4.8. “Tarix va madaniy meros” kafedrasida professor vazifasini bajaruvchisi Sidikova Mastura tomonidan 60220400 — Arxeologiya, 60210300 – Muzeyshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Ancient history of Uzbekistan” darslikni nashrga tavsiya etish haqida.

O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.A.Yorqulovning axboroti.

4.9. “Turizm” kafedrasida dotsenti N.Sh.Mansurovani 08.00.13 – “Menejment” (iqtisod fanlari) ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvonini olishga tavsiya qilish to‘g‘risida.

“Turizm” kafedrasida mudiri X.Ibragimovning axboroti.

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning “O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi PQ-5-sonli Qarorning ijrosi to‘g‘risida:

1. “Farg‘ona” turistik-rekresion zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning 2-ilova 38-bandi “Turizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish” ijrosi bo‘yicha “ijro gov.uz” topshiriq kelib tushgani aytiladi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 26-sentabrdagi 01-12-395-sonli xdfu Amaliy chora-tadbirlar rejasi (Yo‘l xaritasi) ijrosi to‘g‘risida:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 26-sentabrdagi 01-12-395-sonli xdfu O‘zbekiston-Xitoy ta’lim forumi doirasida erishilgan kelishuvlar hamda imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo‘yicha 2025/2026-yillarga mo‘ljallangan Amaliy chora-tadbirlar rejasi (Yo‘l xaritasi)ning 40-41-42 bandlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi to‘g‘risida gapirib o‘tildi.

Kun tartibidagi 1-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor D.A.Nasimovning “O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Farg‘ona” turistik-rekresion zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorning 2-ilova 38-bandi ijrosi ta’minlansin.

Mas’ullar: A.Sultonov, M.Yorqulov. **Muddati:** 2026-yil 25-iyun, 2026-yil 25-dekabr, 2027-yil 25-iyun, 2027-yil 25-dekabr, 2028-yil 25-iyun, 2028-yil 25-dekabr, 2029-yil 25-iyun, 2029-yil 25-dekabr.

3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 26-sentabrdagi 01-12-395-sonli-xdfu “O‘zbekiston-Xitoy ta’lim forumi doirasida erishilgan kelishuvlar hamda imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo‘yicha 2025/2026-yillarga mo‘ljallangan Amaliy chora-tadbirlar rejasi (Yo‘l xaritasi)”ning 40-41-42 bandlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi ta’minlansin.

Mas’ullar: 1. 40.1-bandi- N.Mansurova. **Muddati:** 2026-yil 2-mart

2. 40.2-bandi-M.Yorqulov. **Muddati:** 2026-yil 2-mart

3. 41-band N.Mansurova. **Muddati:** 2026-yil 2-mart

4. 42.1-bandi- M.Yorqulov. **Muddati:** 2026-yil 2-mart

5. 42.2.-bandi- M.Yorqulov. **Muddati:** 2026-yil 24-fevral

6. 42.3.-bandi- M.Yorqulov. **Muddati:** 2026-yil 2-mart

2-MASALA

Eshitildi: Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning “2026-yil 5-30 yanvar oyida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

2026-yil 5-30 yanvar oyida universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda turli tashkilotlardan jami 230 ta hujjat kelib tushgan, shundan 168 ta hujjat ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlangan. Hozirda 62 ta topshiriq bajarilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 2 ta murojaatning ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlangan.

Bundan tashqari, universitetning Senat yig‘ilishida turli tashkilotlardan kelib tushgan hujjatlar hamda murojaatlar holati bo‘yicha muntazam ravishda hisobotlar berib boriladi.

Kun tartibidagi 2-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning “2026-yil 5-30 yanvar oyida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, fakultet dekan hamda kafedra mudirlari (T.Sultanov, O.Boynazarov, H.Ibragimov, T.Akramova, N.Raximova)ga:

– O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Viloyat hokimligi hamda turli tashkilot va idoralardan kelgan barcha turdagi topshiriqlar ijrosi “edo.ijro.uz” elektron platformasidan foydalangan holda belgilangan muddatlarga qat‘iy rioya qilib sifatli bajarilishini ta‘minlash vazifasi topshirilsin;

– “edo.ijro.uz” tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddat ichida bajarmaslik yoki muddati o‘tib bajargan mas‘ul ijrochilarga nisbatan

universitetning 2024-yil 9-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i asosida intizomiy jazo qo‘llanilsin;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishi ta‘minlasin. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya‘ni o‘z vaqtida ijrosini ta‘minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas‘ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan hamda kafedra mudirlari universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishini ta‘minlasin.

4. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya‘ni o‘z vaqtida ijrosini ta‘minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas‘ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3-MASALA

Eshitildi: Protokol kotibiyati bo‘limi bosh mutaxassisi A.Izbasarovanning “Universitetning 2026-yili uchun Ish rejasini tasdiqlash haqida”gi axboroti eshitildi.

Protokol kotibiyati bo‘limi tomonidan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2026-yil uchun Ish rejasi ishlab chiqildi. Ma‘lumki, barcha bo‘limlar va kafedralar Birinchi prorektor tomonidan tasdiqlangan Ish rejalarini “Ijro intizomi, devonxona va arxiv” bo‘limiga topshirgan edi. Shu Ish rejalar umumlashtirilgan holda tayyorlanib universitetning 2026-yil uchun Ish rejasini umumiy yig‘ilishida tasdiqdan o‘tkazish so‘raldi.

Kun tartibidagi 3-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Protokol kotibiyati bo‘limi bosh mutaxassisi A.Izbasarovanning universitetning 2026-yil uchun Ish rejasini tasdiqlash haqidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetning 2026-yil uchun Ish rejasi tasdiqlansin.

3. Kelgusi davrda bo‘lib o‘tadigan Senat yig‘ilishlari universitetning 2026-yil uchun qabul qilingan Ish rejasiga ko‘ra tashkil etilsin.

4. Dolzarb masalalarni Senat yig‘ilishlarida qo‘shimcha muhokama qilib borish belgilansin.

4. HAR XIL MASALALAR

Eshitildi:

4.1. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD N.Raximovani dotsentlik attestatini olishga tavsiya etish haqida”gi axboroti eshitildi.

Raximova Nilufar Aminovna “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektorining № 466-X-sonli buyrug‘i bilan 2025-yil 3-oktyabrdan boshlab “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida mudiri lavozimiga o‘tkazilgan. 2025-yil 6-yanvardan “Turizm” kafedrasida v.b. dotsenti (2025-yil 8-yanvardagi №21-X-sonli buyruq) va 2025-yil 3-oktyabrdan “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida dotsent v.b. sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

Raximova Nilufar Aminovna tomonidan tayyorlangan va chop etilgan amaliy mashg‘ulot va kurs ishlarini bajarish, malakaviy amaliyotni o‘tash va hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv-uslubiy ishlari talabalarga chuqur bilim berishda va mashg‘ulotlarni samarali olib borishda, o‘quv jarayonini uslubiy jihatdan ta‘minlashda o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shuningdek, talabgor universitetda o‘tiladigan fanlardan zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlar va majmualar tayyorlashda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, Raximova Nilufar Aminovna tomonidan 5230100-Iqtisodiyot yo‘nalishiga talabalari uchun “World economy and International Relations” nomli o‘quv qo‘llanma (Samarqand davlat universitetining 2020-yil 30-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan 246-sonli guvohnoma), “Research methods in Tourism”, “Environmental management” (IYTMMXU Senatining 2024-yil 29-martdagi 2-sonli qaroriga asosan nashr etishga ruxsat berilgan), “Human resource management in Tourism and Hospitality” (IYTMMXU Senatining 2025-yil 27-iyundagi 8-sonli qaroriga asosan nashr etishga ruxsat berilgan) va “Project management in Tourism and Hospitality” (IYTMMXU Senatining 2025-yil 28-noyabdagi 10-sonli qaroriga asosan nashr etishga ruxsat berilgan) nomli uslubiy qo‘llanmalari o‘quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda. N.A.Raximova tomonidan yaratilgan o‘quv, ilmiy va uslubiy ishlaridan talabalar kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanmoqda.

N.A.Raximova respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlarini tayyorlashda faol mehnat qilish bilan birga o‘quv-uslubiy jarayonni tashkil etish, ta‘lim va tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash, ilmiy-uslubiy jarayonni tashkil etish, ta‘lim va ilmiy tadqiqot uzviyligini ta‘minlash borasida fidokorona mehnat qilib kelmoqda.

N.A.Raximova pedagogik faoliyat bilan birga jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Universitet miqyosida o‘tkaziladigan ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarida faol ishtirok etib, talabalarni turli tadbirlarda ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko‘rsatib keladi. U muntazam ravishda ta‘lim-tarbiya va ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga oid qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari mazmuni

bilan talabalarni va keng aholini tanishtirib borishda ham faol o'qituvchilardan biridir.

Raximova Nilufar Aminovna universitet miqyosida olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar o'rtasida ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy soha shuningdek, jamoat ishlarida ko'plab tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda

Kun tartibidagi 4.1.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Senati Raximova Nilufar Aminovnaning 13 yillik pedagogik stajini, ilmiy va o'quv-uslubiy ishlaridagi samarali faoliyatini, tashkilotchiligi va o'z kasbining yetuk mutaxassisi ekanligini inobatga olib, unga 08.00.17 – "Turizm va mehmonxona faoliyati" ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini berish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga (OAK) hujjatlarini taqdim etilishi tavsiya qilinsin.

Eshitildi:

4.2. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning "2026-yil 1-chorak uchun universitet Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga tayanch doktoranturaga o'qishga qabul qilingan 6 nafar hamda mustaqil izlanuvchilarning yakka tartibdagi ish rejalari, nazariy-metodologik dasturlari, dissertatsiya ishi mavzulari va tadqiqotchilarga biriktiriladigan ilmiy rahbarlarni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

2026-yil 1-chorak uchun Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilingan 6 nafar ilmiy izlanuvchilar tomonidan 2026-yil 30-yanvar holatiga ko'ra, universitet Senatiga taqdim etilgan 6 nafar tadqiqotchilar tomonidan tanlangan dissertatsiya ishi mavzulari hamda ilmiy rahbarlikka tavsiya etilgan professor-o'qituvchilar bilan birgalikda tayyorlagan dissertatsiya ishi mavzusini tanlash bo'yicha asosnomalar, yakka tartibdagi ish rejalari va nazariy-metodologik dasturlari hamda tadqiqotchilar biriktirilgan kafedra majlislari bayonnomalari o'rganilib chiqildi.

Kun tartibidagi 4.2.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1.1. Tayanch doktoranturaga (PhD) va mustaqil izlanuvchilikka (DSc) o'qishga qabul qilingan ilmiy izlanuvchilarning yakka tartibdagi ish rejalari va

nazariy-metodologik dasturlari “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 3-bobi 28-29-bandalariga muvofiq talab darajasida tuzilganligini inobatga olgan holda tasdiqlandi, deb hisoblansin.

1.2. 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilingan Raupova Farida Azimjonovnaning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Turistik destinatsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish usullarini takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Mansurova Nargiza Shamsidinovna biriktirilsin.

1.3. 08.00.05-“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilingan Hikmatova Marjona Abduvali qizining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Xizmat ko‘rsatish korxonalarida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish (Samarqand viloyati misolida)” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Mansurova Nargiza Shamsidinovna biriktirilsin.

1.4. 08.00.13-“Menejment” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilingan Mustafoulova Sitora Sho‘hratovnaning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda strategik menejmentni takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent O‘rinov Yigitali Muratovich biriktirilsin.

1.5. 08.00.11-“Marketing” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilingan Oblaqulov Bekzodjon Sherali o‘g‘lining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Raqamli marketing strategiyalarini joriy qilish asosida xususiy ta’lim mijozlari sodiqligi va brend ishonchini takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich biriktirilsin.

1.6. 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilingan Hasanova Visola G‘afurjonovnaning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “O‘zbek va ingliz tillarida harbiy terminlarning lingvokulturologik tadqiqi ("Temur tuzuklari" asari va uning ingizcha tarjimasi misolida)” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sultanov Tulkin Irgashevich biriktirilsin.

1.7. 17.00.06-Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta’mirlash va saqlash ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD)

o‘qishga qabul qilingan Xudoyberdiyeva Shoira Utkir qizining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Muzeylarda tarixiy hujjatlarni saqlash va muzeylashtirish jarayonlarini takomillashtirish masalalari (Samarqand davlat muzey-qoriqxonasi misolida)” mavzusida tasdiqlansin hamda ilmiy rahbar sifatida tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Sidikova Mastura Xakberdiyeva biriktirilsin.

Eshitildi:

4.3. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “Mustaqil izlanuvchilikka o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchilarni dissertatsiya ishi mavzularini tasdiqlash va ularga mahalliy hamda xorijlik ilmiy rahbarlarni biriktirish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti va Shanxay hamkorlik tashkilotining iqtisodiyot va savdo akademiyasi o‘rtasida 2024-yil 12-fevral sanasida imzolangan xalqaro hamkorlik kelishuviga asosan 2024-yil 2-chorak uchun 12 nafar, 2024-yil 4-chorak uchun 15 nafar hamda Pekin xalqaro tadqiqotlar universiteti bilan imzolangan xalqaro hamkorlik kelishuviga asosan 2025-yil 2-chorak uchun 9 nafar hamda 2026-yil 1-chorak uchun 9 nafar, umumiy hisobda, jami: 45 nafar xitoylik talabgorlar universitet oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilinganligi va tegishli tartibda universitet rektorining buyrug‘i bilan rasmiylashtirilganligi to‘g‘risida aytib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomga hamda Shanxay hamkorlik tashkilotining Iqtisodiyot va savdo akademiyasi va Pekin xalqaro tadqiqotlar universiteti o‘rtasida imzolangan xalqaro hamkorlik kelishuvlariga muvofiq xorij fuqarolarini universitetda mustaqil izlanuvchilik (PhD) dasturida o‘qitish to‘lov-kontrakt shartnomasi asosida amalga oshiriladi hamda o‘qishga qabul qilingan mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya ishlariga ilmiy rahbar sifatida 2 ta (1 ta mahalliy 1 ta xorijlik) professor-o‘qituvchilar biriktirilishi ko‘zda tutilgan.

Mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan jami 45 nafar ilmiy izlanuvchilardan 33 nafari bugungi kunda o‘zining dissertatsiya ishi yuzasidan tadqiqot olib borayotganligi ta’kidlandi. Xorijlik talabgorlarni mustaqil izlanuvchilikka o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi universitet rektori A.A. Abduxakimovning 2024-yil 1-apreldagi 8-I/CH-sonli, 2024-yil 25-noyabrdagi 28-I/CH-sonli, 2025-yil 28-apreldagi 10-I/CH-sonli hamda 2025-yil 12-dekabrda 42-I/CH-sonli buyruqlariga muvofiq 08.00.13-Menejment, 08.00.11-Marketing, 08.00.05-Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi, 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosliklari bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan mustaqil

izlanuvchilar “Turizm” kafedrasiga, 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan mustaqil izlanuvchilar “Yozma va og‘zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrasiga, 17.00.06-Muzeyshunoslik, tarixiy madaniy obyektlarni saqlash va konservatsiya qilish ixtisosligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan ilmiy izlanuvchilar “Tarix va madaniy meros” kafedrasiga birlashtirilgan. Mustaqil izlanuvchilarning qabul buyruqlarining 4-bandiga muvofiq kafedra mudirlari zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzularini kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar bilan birgalikda ko‘rib chiqish va muhokama qilish vazifasi yuklatilgan. Bugungi kunda tadqiqot faoliyatini olib borayotgan 33 nafar mustaqil izlanuvchilardan 2-bosqichda tahsil olayotgan 11 nafarining dissertatsiya ishi himoya jarayonlarini o‘z vaqtida tashkil etish va himoya jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqotchilarning dissertatsiya ishi mavzularini hamda ularga birlashtirilgan mahalliy va xorijlik ilmiy rahbarlarni kollegial organda tasdiqlash zarurati mavjudligi ta’kidlab o‘tildi.

Kun tartibidagi 4.3.-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1.1. 08.00.13-Menejment ixtisosligi mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Wang Qianqianning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Ipak yo‘li bo‘ylab turizm marshrutlarini rivojlantirishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ibragimov Nutfillo Salimovich birlashtirilsin.

1.2. 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Yang Guangning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Xitoy va Bir kamar bir yo‘l tashabbusida ishtirok etuvchi mamlakatlar o‘rtasida transchegaraviy elektron tijorat marketingi bo‘yicha tadqiqot” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD dotsent Nasimov Ikrom Xusanovich birlashtirilsin.

1.3. 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Xu Huining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya

ishi “Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi asosida Ipak yo‘li madaniy merosi va turizm tarmog‘ini rivojlantirishda tashkiliy va iqtisodiy modellarni qo‘llashni takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Matyakubov Umidjon Raximovich biriktirilsin.

1.4. 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Wang Biaoning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Intellectual baholash tizimlariga asoslangan elektron tijorat platformalarini shakllantirish va tijoratlashtirish mexanizmlarini boshqarish” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Axrorov Farxod Baxriddinovich biriktirilsin.

1.5. 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Wang Ainiaoning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Barqaror turizmni rivojlantirish doirasida nomoddiy madaniy merosni qayta tiklash va undan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish (Xitoy va O‘zbekiston kulolchilik hunarmandchiligi misolida (Improving the Mechanisms for the Revitalization and Utilization of Intangible Cultural Heritage within the Framework of Sustainable Tourism Development (Based on the Case of Chinese and Uzbek Ceramic Craftsmanship))” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Mansurova Nargiza Shamsidinovna biriktirilsin.

1.6. 17.00.06-Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta‘mirlash va saqlash ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Zheng Chengzhining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Xitoy va O‘zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilish strategiyalarining qiyosiy tadqiqi: Jinlin viloyati va Samarqand viloyati misolida” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida PhD, dotsent Sidikova Mastura Xakberdiyevna hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Li Zhengdong biriktirilsin.

1.7. 17.00.06-Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta‘mirlash va saqlash ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o‘qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Song Difeining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Samarqand an‘anaviy qo‘l bilan qog‘oz yasash tirik muzeyini faollashtirish yo‘li va madaniy merosni muhofaza qilish mexanizmini tadqiq qilish” mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida PhD, dotsent Sidikova Mastura

Xakberdiyevna hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Li Xiaocen biriktirilsin.

1.8. 17.00.06-Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Jin Lingning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "Islom me'moriy merosini muzey sifatida saqlash va namoyish etishning taqqosiy yo'llari: Xitoy va O'zbekiston misolida tadqiqot" mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida PhD, dotsent Saidov Muminxon Munir o'g'li hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Li Zhengdong biriktirilsin.

1.9. 17.00.06-Muzeyshunoslik. Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Wang Jingyuning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "Sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bilim almashish kontekstida "Sancai" sopol san'atini saqlash va tadqiq etish" mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida PhD, dotsent Saidov Muminxon Munir o'g'li hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Li Bing biriktirilsin.

1.10. 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Yu Lining PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "Ipak yo'li kontekstida an'anaviy xitoy tabobati tarjimasining tarixiy evolyutsiyasi, madaniy moslashuvi va zamonaviy kommunikatsiyadagi innovatsiyalari" mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida filologiya fanlari doktori, professor Eltazarov Jo'liboy Danabayevich hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Qi Taoyun biriktirilsin.

1.11. 10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) o'qishga qabul qilingan xorijlik ilmiy izlanuvchi Zhang Xuning PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi "Bir makon, bir yo'l tashabbusi doirasida Xitoyning butunjahon madaniy merosi obyektlarini tashqi kommunikatsiya tarjima tadqiqi" mavzusida tasdiqlansin hamda mustaqil izlanuvchiga mahalliy ilmiy rahbar sifatida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Turdiyeva Nargiza Mardonovna hamda xorijlik ilmiy rahbar sifatida professor Qi Taoyun biriktirilsin.

Eshitildi:

4.4. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2025-yil 1-dekabr sanasida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori 7-ilovasi bilan tasdiqlangan “Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari” tegishli bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida yosh olimlarni xorijiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2025-yil 1-dekabr sanasida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-aprelda 222-son qarori bilan tasdiqlangan “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga va Shveysariyaning Jeneva xalqaro instituti bilan tuzilgan almashinuv memorandumiga asosan tanlov e‘lon qilinganligi va ushbu tanlovga ishtirok etish istagini bildirgan Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi Hasanov Habibullo O‘tkirjon o‘g‘li hamda 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha Turizm kafedrasida 2-bosqich tayanch doktoranti Ibroximov Nodirbek Xasanovich haqida ma‘lumot berib o‘tdi. Bunda, stajirovka o‘tash uchun yo‘nalishlar taqsimotida keltirilgan miqdorlarda yosh olimlar saralab olinishi va tanlov yakunlariga ko‘ra g‘oliblar stajirovkani amalga oshirish dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarish uchun Shveysariyaning Jeneva xalqaro institutiga stajirovkaga yuborilishi aytib o‘tildi. Ushbu tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlar tanlov yakunlariga ko‘ra Biznes analitikasi (Business Analytics), Suniy intellekt va Raqamli transformatsiya bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjudligi va bugungi kunda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha universitetda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakasini oshirish dolzarb masala ekanligini aytib o‘tdilar.

Kun tartibidagi 4.4.-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi Hasanov Habibullo O‘tkirjon o‘g‘li va 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha “Turizm” kafedrasida tayanch doktoranti Ibroximov Nodirbek Xusanovichni Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish bo‘yicha tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilsin.

Eshitildi:

4.5. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “2025-yilning 15-18-dekabr kunlari “1-talabalar forumi” doirasida “Turizm va madaniy meros sohasini barqaror rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar” mavzusida tashkil

etilgan konferensiya materiallarini to'plam shaklida chop etish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

2025-yilning 15-18-dekabr kunlari "1-talabalar forumi" doirasida "Turizm va madaniy meros sohasini barqaror rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusida konferensiya tashkil etilganligi, ushbu konferensiyaga 5 ta sho'ba doirasida universitet talabalari, professor o'qituvchilar tomonidan maqola hamda tezislar topshirilganligi, shu bilan bir qatorda, ushbu materiallarni to'plam shaklida chop etish lozimligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Kun tartibidagi 4.5-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1. 2. "1-talabalar forumi" doirasida "Turizm va madaniy meros sohasini barqaror rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusida tashkil etilgan konferensiya materiallari to'plamini "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 5 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo'limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.6. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning "Universitetda professor-o'qituvchilarni hamda xodimlarni xalqaro ilmiy texnik ma'lumotlar bazalaridagi (Web of Science, Scopus, Elsevier) jurnallarda ilmiy maqolalar chop etishga rag'batlantirish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Universitet "Turizm" kafedrasida o'qituvchisi Salnikova Elenaning "Forecasting Tourism Services Exports for Sustainable Development: A Case Study of Uzbekistan" nomli maqolasi konferensiya materialida chop etilganligi uchun umumiy 3 million miqdorda budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan mukofot puli berilishi haqida ma'lumot berdi.

Kun tartibidagi 4.6-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning universitetda professor-o'qituvchilar hamda xodimlarni xalqaro ilmiy texnik ma'lumotlar bazalaridagi (Web of Science, Scopus, Elsevier) jurnallarida maqola chop ettirganligi uchun rag'batlantirish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Turizm” kafedrası o‘qituvchisi Salnikova Elenaning “Forecasting Tourism Services Exports for Sustainable Development: A Case Study of Uzbekistan” nomli maqolasi konferensiya materialida chop etilganligi uchun umumiy 3 million miqdorda budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan mukofot puli berilishi ta’minlansin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z. Sulaymonov va Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovalar zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.7. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha “Turizm” kafedrası mustaqil izlanuvchisi Maxmadiyeva Charos Xayrullayevnanining ixtisoslik shifrini 08.00.17-“Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligiga o‘zgartirish va dissertatsiya ishi mavzusini muhokama qilib qayta tasdiqlash to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Mustaqil izlanuvchi Maxmadiyeva Charos bugungi kunda ilmiy rahbari i.f.d., professor Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich bilan birga tadqiqot ishlarini olib borayotganligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar va olimlarning izlanishlari, tahlil natijalariga ko‘ra “Hududlarda turistlarga umumiy-ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatishning samarali rivojlanishdagi amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, hududiy xususiyatlar, sifat va raqobat, iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik va ekologiya, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalari haqida mustaqil izlanuvchi o‘zi birlashtirilgan “Turizm” kafedrası majlisida taqdimot qilib berganligi va kafedra majlisi davomida tadqiqotchining 08.00.13-Menejment ixtisosligini 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligiga o‘zgartirish va shu sababdan dissertatsiyaning mavzusida keltirilgan “O‘zbekiston” so‘zi “Hududlar” “boshqaruv mexanizmi” so‘zlari esa “usullari” so‘ziga almashtirilishganligi to‘g‘risidagi qaror “Turizm” kafedrasining 2025-yil 29-oktabrdagi №12/184 2-sonli bayonnoma ko‘chirmasi bilan rasmiylashtirilganligi to‘g‘risida axborot berib o‘tdi.

Bundan tashqari tadqiqotchi Maxmadiyeva Charos Xayrullayevnanining ixtisoslik shifrini o‘zgartirish va dissertatsiya ishi mavzusini qayta tasdiqlash masalasi universitet qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminarda ham muhokama etilganligi va Ilmiy seminarning ixtisoslik shifri va dissertatsiya ishi mavzusini o‘zgartirish to‘g‘risidagi xulosasi mavjudligi ta’kidlab o‘tildi.

Kun tartibidagi 4.7-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Turizm” kafedrası mustaqil izlanuvchisi Maxmadiyeva Charos Xayrullayevning 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo‘yicha bajarilayotgan dissertatsiya ishi 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligiga o‘zgartirilsin.

2. Maxmadiyeva Charos Xayrullayevning 08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun bajarilishi rejalashtirilgan dissertatsiya ishi “Hududlarda turistlarga umumiy-ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatishning samarali rivojlantirish usullarini takomillashtirish” mavzusida tasdiqlansin.

3. Mustaqil izlanuvchi Maxmadiyeva Charos Xayrullayevning dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar sifatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich o‘zgarishsiz qoldirilishi belgilab qo‘yilsin.

Eshitildi:

4.8. O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.A.Yorqulovning “Tarix va madaniy meros” kafedrası professor vazifasini bajaruvchisi Sidikova Mastura tomonidan 60220400 — Arxeologiya, 60210300 – Muzeyshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Ancient history of Uzbekistan” darslikni nashrga tavsiya etish haqida”gi axboroti eshitildi.

“Ancient History of Uzbekistan” darsligi mamlakatimizning qadimiy davrlardagi tarixiy voqealarini keng ko‘lamda yoritadi. Kitobda O‘zbekiston hududidagi qadimgi sivilizatsiyalar, shuningdek, Movarounnahr hududining tarixiy ahamiyati batafsil tahlil qilingan. Darslik qadimgi davr arxeologik topilmalari, shaharsozlik, iqtisodiyot va madaniyatning rivojlanishi haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Mazkur darslik O‘zbekistonning eng qadimgi davrlar tarixini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xalqimizning hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini yoritadi. Unda o‘tmishdagi ijtimoiy tuzumlar, mehnat vositalari, iqtisodiy faoliyat va diniy e‘tiqodlardagi davlatchilik shakllarini o‘ziga xos tarzda bayon etilgan.

Darslikda arxeologik yodgorliklar orqali qadimgi odamlarning mavjudligi va hayot shakllari tasdiqlanadi. Shuningdek, qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm va Farg‘ona mintaqalaridagi madaniyat va erta davlatlarning shakllanishi, shaharlashtirish va hunarmandchilik rivoji tahlil qilinadi.

Materiallar tabiiy-geografik sharoitlar, iqtisodiy faoliyat, diniy e‘tiqodlar va tarixiy asosda ijtimoiy tizimlarni chuqur o‘rganishga imkon beradi. Bu esa talabalar uchun tarixiy faktlarga tanqidiy yondashuvni, manbalarni baholash va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Darslik milliy qadriyatlarni hurmat qilish, tarixiy merosni saqlash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida bunday

darsliklarning kamligi hisobga olinsa, uning ingliz tilida chop etilishi xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham ahamiyatli bo'ladi.

Umuman olganda, darslik O'zbekiston qadimgi tarixini o'rganishda dolzarb, ilmiy va amaliy jihatdan muhim bo'lib, talabalar uchun zarur manba hisoblanadi.

Ushbu darslik o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun manba bo'lib xizmat qilib, nazariy bilimlarning amaliy tushunilishini ta'minlaydi.

Darslikni nashrga tavsiya etish bo'yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 4.8-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.A.Yorqulovning "Tarix va madaniy meros" kafedrası professor vazifasini bajaruvchisi Sidikova Mastura tomonidan 60220400 — Arxeologiya, 60210300 – Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Ancient history of Uzbekistan" darslikni nashrga tavsiya qilish haqida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Tarix va madaniy meros" kafedrası professor vazifasini bajaruvchisi Sidikova Mastura tomonidan 60220400 — Arxeologiya, 60210300 – Muzeyshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Ancient history of Uzbekistan" darsligi tasdiqlansin va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo'limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

4.9. "Turizm" kafedrası mudiri X.Ibragimovning "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm" kafedrası dotsenti N.Sh.Mansurovani 08.00.13 – "Menejment" (iqtisod fanlari) ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvonini olishga tavsiya qilish to'g'risida.

Mansurova Nargiza Shamsidinovna "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektorining № 414-X-sonli buyrug'i bilan 2021-yil 2-dekabrda boshlab Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i lavozimiga o'tkazilgan. 2024-yil 1-noyabrdan "Turizm" kafedrası professori v.v.b. (2024-yil 1- noyabrdagi №530-X-sonli buyruq) sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

1. Mansurova Nargiza Shamsidinovna 1985-yil 17-aprelda tug'ilgan, millati o'zbek.

2. 2010-yil Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Marketing” bakalavr ta’lim yo‘nalishini va 2013-yil Samarqand davlat universitetining “Mehnat iqtisodiyoti” magistratura mutaxassisligini tugatgan.

3. 2021-yil 3-iyulda “Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasini G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Dsc.22/30.12.2019.I.100.01 raqamli Ilmiy kengashda himoya qildi.

2021-yil 31-iyul OAKning (01№004802) 303/1-sonli bayonnomasiga asosan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini oldi.

2021-yil 6-yanvar OAKning (03№014938) 348/1-sonli bayonnomasiga asosan dotsentlik unvonini oldi.

2025-yil 26-aprel “Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashda himoya qildi.

2025-yil 25-avgust OAKning (04№009146) 374/1-sonli bayonnomasiga asosan iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

4. Mansurova Nargiza Shamsidinovna 2010-2013-yillar Samarkand oziq-ovqat kasb-hunar kollejida o‘qituvchi lavozimida faoliyat yuritgan. 2013-2021-yillar Samarqand davlat universiteti “Inson resurslarini boshqarish kafedrasini” assistenti lavozimida ishlagan. 2021-yilning 2-dekabridan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i va 2024-yilning 1-noyabridan “Turizm” kafedrasining professori v.v.b lavozimlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Umumiy ish staji - 15 yil, ilmiy pedagogik ish staji - 15 yil.

2006-2010-yillar - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti Marketing yo‘nalishi talabasi;

2011-2013-yillar - Samarqand davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti Mehnat iqtisodiyoti yo‘nalishi magistranti;

2010-2013-yillar - Samarkand oziq-ovqat kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi;

2013-2021-yillar - Samarqand davlat universiteti “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasini assistenti;

2021-yildan h.v.- “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i hamda 2024-yildan “Turizm” kafedrasini professori v.b..

Xususan, N.Sh.Mansurovaning “Human Resources Management” tayyorlangan darsligi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 8-yanvardagi №5201-2069-5f89-7cd6-d874-4743-3433

ma'lumotnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan), "Barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslari" monografiyasi. ("Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti. Sam.: 2025. – 230 b. ISBN 978-9910-9244-4-6), prof. N.U.Tuxliyev, prof. B.Sh.Safarov, dots. S.A.Abduxamidov va boshqalar bilan hammualliflikda tayyorlangan "Introduction to tourism and hospitality" darsligi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi № 136-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan), N.Sh. Mansurova, A.M.Amirov, M.R.Maxmudova, G.R.Maxmudovalar bilan hammualliflikda tayyorlangan "Fundamentals of Economics" nomli o'quv qo'llanmasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi № 258-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan) o'quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda.

N.Sh.Mansurova respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda faol mehnat qilish bilan birga o'quv-uslubiy jarayonini tashkil etish, ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, ilmiy-uslubiy jarayonni tashkil etish, ta'lim va ilmiy tadqiqot uzviyligini ta'minlash borasida fidokorona mehnat qilib kelmoqda.

6. N.Sh.Mansurova pedagogik faoliyat bilan birga jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Universitet miqyosida o'tkaziladigan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida faol ishtirok etib, talabalarni turli tadbirlarda ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko'rsatib keladi. U muntazam ravishda ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari mazmuni bilan talabalarni va keng aholini tanishtirib borishda ham faol o'qituvchilardan biridir.

Mansurova Nargiza Shamsidinovna universitet miqiyosida olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar o'rtasida ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy soha shuningdek, jamoat ishlarida ko'plab tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan:

1. 2024-yil 25-fevral kuni universitetning Faollar zalida "Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish" mavzusida ma'rifiy tadbirda ishtirok etdi;

2. 2025-yil 16-oktabr kuni universitetning Faollar zalida bo'lib o'tgan "Diniy bag'rikenglik - jamiyat barqarorligining muhim omili" mavzusida o'tkazilgan tadbirda ishtirok etgan va nutq so'zlagan;

3. 2025-yil 23-dekabr kuni universitetning Faollar zalida bo'lib o'tgan "Kelajak soati" darsining "Men o'zbekistonlikman" mavzusida o'tkazilgan tadbirda O'zbekiston mustaqillik yillarida yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni vatanga sodiq bo'lishga undash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlilik ishlar haqida so'zlab berdi. Shu bilan birga, vatanparvarlik nafaqat g'oya, balki har

bir fuqaroning kundalik hayotida, maktabda, oliy ta'lim muassasasida va jamiyatdagi faoliyatida namoyon bo'lishi kerakligi ta'kidlab nutq so'zlashadi.

7. Mansurova Nargiza Shamsidinovna 2025-yilning 27-dekabridan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/2025.27.12.I.01.01 raqamli Ilmiy kengash a'zosi (O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 27-dekabrda №1260-qarori);

2022-yilning 1-fevralidan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.1.145.01 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar Ilmiy kotibi (O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi 2022-yil 28-fevraldagi №51-qarori, 2025-yil 27-dekabrda №1260-qarori);

Mansurova Nargiza Shamsidinovna universitet huzuridagi DSc.33101.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi 08.00.17 - (PhD) ilmiy darajasini oluvchi talabgorlarga malakaviy imtihonlarni qabul qilish bo'yicha komissiya a'zosi (ilmiy kotib) sifatida faoliyat olib bormoqda (2022-yildan hozirgi kunga qadar).

2025-yil 3-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka (PhD, DSc) o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayonlarini tashkil etish va komissiya a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida ("Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektorning 2025-yil 19-maydagi 56-sonli buyrug'i), Universitetda tahsil olayotgan tayanch doktorantlarning yarim yillik hamda mustaqil izlanuvchilarning (2022-2024-yil 3-chorak uchun o'qishga qabul qilingan mustaqil izlanuvchilar) yillik ilmiy faoliyatlari monitoringini tashkil etish to'g'risida

Mansurova Nargiza Shamsidinovna shu vaqtga qadar 80 ga yaqin ilmiy ish chop ettirgan. Ular orasida 1 ta darslik, 2 ta hammualliflikdagi darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, monografiyalar va 10 tadan ortiq Scopus va Web of Science xalqaro jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar, 20 dan ortiq mahalliy jurnallardagi ilmiy maqolalar hamda 30 ga yaqin xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalaridagi tezislar chop qilingan.

N.Sh. Mansurova tomonidan yaratilgan o'quv, ilmiy va uslubiy ishlaridan talabalar kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanmoqda.

N.Sh. Mansurova SamDU hamda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektorining buyrug'i asosida 2013-yildan buyon 27 nafar talabalarning bitiruv malakaviy ishlariga hamda magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan.

N.Sh. Mansurova talabalarga bitiruv malakaviy ishlariga hamda magistrlik dissertasiyalariga ilmiy rahbarlik bilan birga talabalarni nufuzli tanlovlarga ham tayyorlab bormoqda.

Mansurova Nargiza Shamsidinovna ma'ruza mashg'ulotlarini metodik jihatdan yuqori saviyada o'tadi, auditoriyadagi talabalar diqqatini jalb qila oladi. Dars mashg'ulotlarida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan foydalanadi. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalarning interaktiv metodlaridan, tarqatma materiallar, ishchi va nazorat varaqalaridan unumli foydalanadi. Ma'ruza materialini internet yangiliklari bilan boyitib, sodda va ravon tilda tushuntirish mahoratiga ega. Amaliy mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida olib boradi. O'tadigan fanlari yuzasidan o'quv-uslubiy majmualar, ta'lim yo'nalishining tanlov fanlari uchun fan dasturlari, darslik yaratgan.

Shu bilan birgalikda, N.Sh. Mansurova "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i sifatida 10 tadan ortiq konferensiyaning o'tkazilishiga boshchilik qildi.

Shuningdek, 08.00.13 – "Menejment" (iqtisod fanlari) ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvonini olishga da'vogar "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor v.v.b. N.Sh.Mansurovaning nomzodini yopiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshirish va bu bo'yicha hisob komissiyasi tarkibini tuzish kerakligi ta'kidlandi.

Hisob komissiyasi tarkibi Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor D.Nasimov – komissiya raisi, "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida mudiri dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD N.Rahimova – komissiya a'zosi, "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasida mudiri dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD T.Sultonov – komissiya a'zosidan iborat qilib belgilandi.

Hisob komissiyasi raisi Ma'muriy masallar bo'yicha birinchi prorektor D.Nasimov so'zga chiqib – 15 nafar Senat a'zolari yopiq ovoz berish natijasida quyidagicha javob berganlar: "Tarafdorlar" – 15-nafar, "Qarshilar" – yo'q, "Betaraflar" –yo'q, buzilgan bulletin varaqlari – yo'q.

Kun tartibidagi 4.9-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Turizm" kafedrasida mudiri X.Ibragimovning "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm" kafedrasida dotsenti N.Sh.Mansurovaning nomzodini 08.00.13 – "Menejment" (iqtisod fanlari) ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvonini olishga tavsiya qilish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Hisob komissiyasi raisi Ma'muriy masallar bo'yicha birinchi prorektor D.Nasimovning yopiq ovoz berish bo'yicha axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Hisob komissiya bayonlari tasdiqlansin.

4. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor v.v.b. N.Sh.Mansurovaning nomzodi 08.00.13 – "Menejment" (iqtisod fanlari) ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvonini olishga tavsiya qilinsin.

Bayonnoma yurituvchi:

Protokol kotibiyati bo'limi

bosh mutaxassisi

A.Izbasarova

**"IPAK YO'LI" TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING DOIMIY A'ZOLARI RO'YXATI**

2025-yil 2-fevral

soat: 14.30

229-xona

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor, Senat raisi o'rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
5.	A.Q.To'xtamishov	Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i	
6.	N.H.Xushvaqto'v	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	
8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Registrator ofis bo'limi boshlig'i	
10.	M.Yorqulov	O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i	
11.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i	
12.	T.I.Sultanov	"Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasini mudiri	
13.	O.F.Boynazarov	"Tarix va madaniy meros" kafedrasini mudiri	
14.	X.I.Ibragimov	"Turizm" kafedrasini mudiri	
15.	T.K.Akramova	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrasini mudiri	
16.	N.A.Raximova	"Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasini mudiri	
17.	N.M.Turdiyeva	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrasini dotsenti, PhD	
18.	VAKANT	Talabalar parlamenti prezidenti	